

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.Rasulov

Axborot va axborot makonining ijtimoiy-siyosiy kontseptual asoslari 235

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-siyosiy omillari 240

B.X.Tolipov

Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati
asosida rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari 245

F.A.Mirzayeva

Zamonaviy tariqatchilikdagi ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimida
"Maktubot" asarining ahamiyati 249

I.M.Arzimatova

Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari 254

I.A.Asatulloev

Siyosiy ta'sirni amalga oshirish vositalari va mexanizmlari 260

O.M.Karimov

Majburiy mehnatga qarshi kurashda xorij tajribasi: muammo va yechimlar 266

Q.Sulaymonov

Siyosiy madaniyatning milliy-madaniy negizlari va o'ziga xos xususiyatlari 269

A.A.So'fiev

Tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini oshirishning ijtimoiy zarurati 273

M.R.Sodiqova

O'zbekiston ipakchilik sanoatida xalqaro hamkorlik aloqalari va uning iqtisodiy
ahamiyati (2000-2021-yillar) 278

S.A.Soxibov

Korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri: O'zbekiston va global kontekstda oqibatlar tahlili 282

Q.A.Pulatov

Sotsial transformatsiya sifatida tizimli jarayon: falsafiy va tarmoqlararo tahlil 286

D.E.Normatova

Qadimgi Xitoyda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy qarashlar 290

O.M.O'sarkulov

O'zbekistondagi koreys diasporasi milliy identikligining asosiy ko'rinishlari 294

G.I.Hashimova

Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy,
siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida 299

I.A.Rakhimov

Problems with performance indicators (KPI) set by mahalla chairmen
when evaluating the performance of the "Mahalla seven" 304

S.P.Tojiboyev

Davlat boshqaruvida korrupsiogen xatti-harakatlarning psixosotsial ildizlari 308

TARIX**F.M.Rahmonberdiyev**

XX asr 20 – 50-yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining B.Ahmedov hayotida aks etishi 313

F.M.Rahmonberdiyev

Tarixshunoslikda akademik Bo'riboy Ahmedov hayoti va ilmiy faoliyatini
davrlashtirish masalalari: yangi talqinlar 321

E.A.Botirov

Bir olimning izlari: L.M. Landa shaxsiy fondi sahifalariga nigo 328

O.A.Radjabov

Tojikiston temiryo'l tashkiloti va uning faoliyati tarixi 332

S.B.Mamataliyeva

Turkistonning islomgacha bo'lgan davrdagi shishalari tarixi 336

S.I.Yoqubjonov

O'zbekiston hunarmandchiligi: rivojlanishi va xalqaro maydonda bugungi o'rni 342

D.A.Qosimov

Turkiston o'lkasida Farg'ona viloyati pochta-telegraf tizimining tarixiy



UO'K: 32(510):901

QADIMGI XITOIDA VUJUDGA KELGAN IJTIMOY-SIYOSIY QARASHLAR

ВОЗНИКНОВЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ В ДРЕВНЕМ КИТАЕ

THE REVIVAL OF SOCIO-POLITICAL VIEWS IN Ancient CHINA

Normatova Dildor Esonaliyevna 

Farg'ona davlat universiteti Falsafa va milliy g'oya kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya

Maqolada Qadimgi Xitoyda dastlabki ijtimoiy-siyosiy qarashlarning paydo bo'lishi, jamiyatda axloqiy meyorlar va ularga qonun darajasiga ko'tarilganligi o'rganilgan. Shuningdek, Qadimgi siyosiy qarashlarning xarakterli xususiyati qariyb barcha mamlakatlarda siyosatga hamma vaqt axloq prinsiplari doirasida uzviy birlikda qaralganligi yoritilgan.

Аннотация

В статье рассматривается возникновение первых социально-политических взглядов в Древнем Китае, изучается формирование нравственных норм в обществе и их возвышение до уровня законов. Также раскрывается характерная особенность древних политических учений: практически во всех странах политика всегда рассматривалась в рамках принципов морали.

Abstract

The article examines the emergence of the first socio-political views in Ancient China, exploring the development of moral norms in society and their elevation to the level of laws. It also reveals a characteristic feature of ancient political doctrines: in practically all countries, politics was always considered within the framework of moral principles and in inseparable unity with them.

Kalit so'zlar: siyosat, ta'limot, siyosiy jarayonlar, siyosiy-huquqiy, siyosiy-axloqiy, mutafakkir, konsepsiya, davlat, adolat

Ключевые слова: политика, учение, политические процессы, политико-правовой, политико-нравственный, мыслитель, концепция, государство, справедливость

Key words: politics, doctrine, political processes, political-legal, political-moral, political-ethical, thinker, concept, state, justice.

KIRISH

Qadimgi Xitoy boy ma'naviy-falsafiy merosga ega qadimgi sivilizatsiya beshiklaridan biridir. Qadimgi Xitoy siyosiy-huquqiy ta'limotlari tarixi eramizdan avvalgi I ming yillikka borib taqaladi.

Umuman, Xitoyda ijtimoiy-falsafiy tasavvurlarning shakllanishi murakkab ijtimoiy sharoitlarda kechgan, desak yanglishmagan bo'lamiz. Murakkab iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ustidan davlat nazoratining kuchayishi Xitoy davlatchiligining o'ziga xos tomoni hisoblanadi. Quldorlik tuzumi va feodal munosabatlar urug'-aymoqchilik, ajdodlarga ehtirom an'analari bilan birgalikda rivojlanib bordi. Bu esa davlatga xuddi katta oilaga qaragandek munosabatda bo'lishining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shakllanib kelayotgan ilmiy-nazariy tasavvurlar asosan afsonaviy tushunchalar negizida shakllana borgan. Bu erda ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi Qadimgi Yunoniston yoki Hindistondagidek hukmron sinflar orasida faoliyat doirasining aniq bo'linishiga olib kelmadi. Chunki Xitoyda mutafakkirlar va turli ta'limot asoschilarining ko'pchiligi hokimiyat vakillari edi. Bu hol nazariy qarashlarni bevosita siyosiy amaliyotga bo'ysindirish imkonini berdi. Mamlakatni boshqarish, turli tabaqalar o'rtasidagi munosabatlar, etika masalalari Xitoy falsafasining asosiy yo'nalishiga aylanib, jamiyat hayotiga amaliy yondashuvga asos soldi. Shuning uchun Xitoy mutafakkirlari turli ijtimoiy utopiyalarni yaratdilar, eng qadimgi davrlarni ideallashtiruvchi jamiyat loyihalarini ishlab chiqish bilan shug'ullandilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

D.C. Lau, James Legge, Edward Slingerland izohli tarjimalar, D.C. Lau tomonidan izohli ilmiy tarjima, H. Fingarette – Konfutsiy axloqiy-siyosiy g'oyalari tahlili, Falsafa tarixi (turli mualliflar) – Konfutsiy, Laozi, Mozi sharhlari, Qadimgi Sharq falsafasi bo'yicha qo'llanmalari, Маслов А.А.

SIYOSAT

Карлгрен Б, Переломов Л.С. Торчинов, Е.Гафуров, В. Крюков tomonidan mavzuga doir ilmiy-tadqiqot ishlari, darslik va o'quv qo'llanmalari yaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Konfutsiy ta'limoti Xitoy siyosiy-huquqiy va falsafiy ta'limotlarining poydevori hisoblanadi. Bu ta'limotning asoschisi ulug' Xitoy mutafakkiri Konfutsiy nomi bilan bog'liqdir. Uning axloqiy-siyosiy qarashlari markazida insoniylik, inson tabiatining axloqiy masalalari, oila hayoti, davlatning vazifasi, uni boshqarish, xalq va davlatning o'zaro munosabati, ijtimoiy tartib, ijtimoiy qatlamlar to'g'risidagi g'oyalar yotadi. Qadimgi siyosiy qarashlarning xarakterli xususiyati shundaki, qariyb barcha mamlakatlarda siyosatga hamma vaqt axloq prinsiplari doirasida va u bilan uzviy birlikda qaraladi. Konfutsiy ta'limotida ham asosiy o'rinni Jen (insoniylik) [1.18] konsepsiyasi egallaydi. Uning fikricha, kishilarning oila va davlatni boshqarishdagi o'zaro munosabatlarida shunday qonunlar borki, ular «o'zingga lozim topmaganni boshqalarga ham ravo ko'rma», prinsipiga asoslanadi. Insoniylik muayyan ijtimoiy tartib, qoidalar asosida oilada ham, davlat *boshqaruvida* ham amal qilmog'i kerak. Davlat xuddi oilaga o'xshaydi, davlatni boshqarish ham katta oiladagi boshqarishni eslatadi. Hukmdor – hukmdor, fuqaro – fuqaro, ota – ota, o'g'il – o'g'il bo'lmog'i kerak, deyiladi konfutsizm ta'limotida. Bu g'oya davlatni boshqarish haqidagi ta'limotning asosini tashkil etadi. Konfutsiy bu g'oyani isbotlash uchun jamiyat a'zolarining ijtimoiy ahvollariga qarab bir necha qatlamlarga bo'ldi. Birinchi qatlamga tug'ma bilish qobiliyatiga ega bo'lganlar, ikkinchi qatlamga *o'qish o'rganish* natijasida bilim olganlar, uchinchi qatlamga *qiyinchiliklarni* sezganidan keyin bilim olganlar, to'rtinchi qatlamga qiyinchiliklarni boshdan kechirsa ham o'qib o'rganmaydiganlarni kiritdi.

Konfutsiyning sotsial tabaqalar to'g'risidagi qarashlari, garchi uning asosida bilim, o'qish – o'rganish g'oyalari qo'yilgan bo'lsa ham, uning mazmuniga ko'ra aristokrat, oliy tabaqalar xukmronligining QONUNY ekanligini isbotlashga qaratilgandir. Chunki birinchi tabaqa kishilari avval boshdanoq bilimli, adolatga intiluvchan sifatida, qolgan tabaqalarga mansub kishilar esa foyda, manfaat ko'rish shaxsiy hayot uchun harakat qiluvchilar sifatida ko'rsatiladi. Demak, konfutsiychilarning fikricha, birinchi tabaqalarning yuksak ahloqiy sifatlari zahmatkash oddiy xalq ustidan xukmronligini o'rganishini ta'minlaydi. Konfutsiyning davlatni insoniylik ruhida boshqarish g'oyasi o'z davrining ijtimoiy *extiyojlaridan* kelib chiqadi va xukmron guruxlar manfaatlariga xizmat qiladi. Shu bilan birga uning ta'limoti yaxshilik, odob – ahloq va ta'lim –tarbiyaning zarurligi haqidagi fikrlar bilan sug'orilgan. Davlat xalq ishonchiga sazovor bo'lmasa, hech qachon yashay olmaydi. Xukumat boshliqlari shaxsan namuna bo'lish bilan halqni tartib-qoidalariga o'rgatishi kerak. Yuqori tabaqalarning davlatni boshqarishdagi tartib va usullari quyi halq ommasiga ta'sir ko'rsatadi. Boshqarish – bu, har bir narsaning o'z joyiga qo'yilishidir.

Konfutsiy va uning davomchilari o'zlarining davlat, siyosat, adolat, yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlarini hamisha tashqi ilohiy kuchlar bilan bog'laganlar. Bu – tabiiy, albatta. Dinning inson dunyoqarashidagi mutlaq xukmronligi va umuman insoniyat taraqqiyotining o'sha davrlardagi darajasi shuni taqozo etar edi.

Konfutsiy tarafdorlari, umuman barcha antik davr mutafakkirlari singari davlat masalalariga halq ommasining xayoti, odob-ahloq masalalari bilan bog'liq holda qaraganlar. Shuningdek, Konfutsiy ta'limotining bosh konsepsiyasini falak (osmon) va uning hohish irodasi haqidagi fikrlar tashkil etadi. Uning fikricha, falak yoki osmon tabiatning bir qismidir, biroq u oliy kuch bo'lib, tabiatni ham, insonni ham yaratadi. Shunga muvofiq, xayot va o'lim taqdiri azal bilan, falakning hoxish-irodasi bilan bog'liqdir. Boylik va buyuklik ham falakning irodasiga bog'liq. Bunday fikrlar o'z mohiyatiga ko'ra diniy bo'lib, xususiy mulk va tengsizlikning abadiy ekanligini isbotlashga qaratilgandir. Tengsizlik ma'rifat yo'li bilan o'zaro kelishish, bo'ysunish orqali xalq etiladi. Buning uchun siyosat adolatli, odob-axloq doirasida bo'lishi kerakligi uqtiriladi.

Keyinchalik Konfutsiy maktabi sakkiz yo'nalishga bo'linib ketadi. Ular Konfutsiyning axloqiy-siyosiy qarashlarini qayta ko'rib chiqishga, isloh qilishga urinadilar. Lekin Men Szi rahbarligidagi maktab Konfutsiy maktabini va ta'limotini himoya qilibgina qolmay, balki uni yangi sharoitlarda yanada rivojlattirdi. Men Szi maktabi vakillari o'z qarashlariga asos qilib Konfutsiyning falak, davlat, insoniylik, yaxshilik va yomonlik g'oyalarini oldilar. Men Szi ta'limotiga ko'ra inson tabiatiga avval boshdanoq yaxshilik xislatlari xosdir, yomonlik inson tabiatiga aslo xos emasdir. Yomonlik tashqi zararli narsalar ta'sirida o'z-o'zini himoya qila olmaslikdan kelib chiqqandir. Konfutsiy kabi Men Szi xam falak (osmonni) mohiyatining ikki tomonini ko'rsatdi. Uning fikricha, falak (bu erda – Xudo) bevosita xalqqa va hukmdorga (samo o'g'liga) hamda odamlar taqdir: va davlatga tasir ko'rsatadi.

Inonni sevish (Jen), adolat (I), odoblilik, xushfe'llik (Li) va bilim (Chji) inson tabiatiga xos tug'ma xususiyatdir. Insoniylik (Jen) ta'limoti asosida davlatni: «insoniy boshqarish» bosh vazifadir, boshqarishda asosiy rolini: xalq ommasi o'ynaydi, degan g'oya yotadi. Davlatda asosiy rolni xalq o'ynaydi, ruxlar, erdagi barcha narsa va xodisalar uning izidan boradi. Men Szining bunday qarashlari o'z davri uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, siyosat va davlatni xalq xizmatiga yo'naltirish zarurligini ta'kidlar edi.

Konfutsiy qarashlari keyinchalik Syun-Szi (er.av. 313 – 235-yy.) tomonidan rivojlantirildi. Davlatni boshqarishda, Syun-Szi ta'limotiga ko'ra, adolatli buyruq berish, xalqni sevish, uning an'analarini qadrlash, olimlar, oqil va donishmand kishilarni e'zozlash, davlat ishlariga qobiliyatli kishilarni jalb etish muhim ahamiyatga egadir. Boshqarishning mezoni adolat va tinchlikdir. Davlat kishilarning osoyishtaligi va o'zaro ahil bo'lib yashashlari uchun xizmat qilishi kerak, deb ta'lim berdi Syun-Szi[2.11].

Bu borada mutafakkir Dun Chjunshu (er. av. 180 — 115-yy) ta'limoti alohida ahamiyatga molikdir. Shu yillari «Xan davri Konfutsiyasi» nomli maktab vujudga kelgan edi. Dun Chjunshu imperator universitetida dars berib, saroyga yaqin faylasuflardan biri edi. U Konfutsiy talimotining tan olinishini talab qilib bu ta'limotni davlat doktrinasi darajasiga ko'tardi. U imperator hokimiyatining mutlaq ekanligini isbotlashga harakat qildi. Eramizdan avvalgi VII—II asrlarda Xitoyda legizm deb nom olgan falsafiy-siyosiy yo'nalish vujudga keldi. «Legizm» - qonun degan ma'noni anglatadi. Bu ta'limotning ko'zga ko'ringan vakillari: Guan Chjun (er. av. VII asr), Shan Yan (er. av. 390-338-yy.), Xan Fey (er. av. 280—233 yy.) hisoblangan.

Legizm o'zining axloqiy-siyosiy mohiyatiga ko'ra inson, jamiyat va davlatni boshqarish haqidagi ta'limotdir. Bu oqim ilk konfutsiy tarafdorlari bilan jiddiy kurashlar davomida shakllandi va rivojlandi. Bu oqim tarafdorlari kuchli, yaxshi boshqariladigan, qonunga asoslangan davlat tarafdorlari sifatida chiqdilar. Biroq, qonunga asoslanuvchi qudratli davlatni barpo etish va boshqarish usullari masalasida legizm maktabining namoyondalari hamisha ham bir xil fikrda bo'lmaganlar. Eng muhim masalalarda Konfutsiy ta'limotiga qo'shilmaslik hollari ham bo'lgan. Konfutsiychilar jamiyat xayotining markaziga insoniylik hamda kishilarning ahloqiy sifatlarini qo'ygan bo'lsalar, legizm tarafdorlari qonunni ustun qo'yadilar: «siyosat axloq bilan mos kelmaydi, sig'ishmaydi», degan tezisni ilgari surdilar. Siyosat axloqiy normalardan tashqaridadir. Xukmdor jamiyatni muvaffaqiyatli boshqarmoq uchun kishilar ruhiyatini yaxshi bilib olsa kifoya: xukmdorning xalqqa ta'sir ko'rsatishining muhim vositasi o'z vaqtida uni rag'batlantirishni va o'z vaqtida unga jazo berishni bilishidir. Ayni vaqtida jazolash rag'batlantirishga nisbatan ustun turadi. Demak, legizm tarafdorlari aholining katta qismiga nisbatan ko'proq jazo choralari qo'llashni ma'qul ko'rganlar va buni isbotlashga xarakat qilganlar. Ularning programmasi asosini dexxonchilikni rivojlantirish, mamlakat chegarasini kengaytirish, halq ommasini doimo itoatda tutib tura oladigan kuchli armiya tuzish tashkil qilgan. Legizm tarafdorlari qonun oldida hammaning tengligi g'oyasini ilgari surganlar, biroq amalda zolim va mustabid davlat konsepsiyasini yaratganlar. Lekin bundan hukmdor mustasno bo'lib, uning o'zi qonun, qonun yaratuvchidir. Legizm ta'limoti ma'muriy-byurokratik mafkurani vujudga keltirib, xatto XX asr boshlariga qadar deyarli o'zgarmadi. Umuman, legizm tarafdorlari davlatni boshqarishning quyidagi masalalarini ilgari suradilar: mamlakatda iqtisodiy jarayonlar davlat tomonidan boshqariladi; mansabdor – amaldorlarni (ularning vorislik huquqini bekor qilgan holda) ma'muriy tayinlash yo'li bilan davlat apparatini borish; aslzodalik zodagonlik, amaldorlik, xarbpay xizmat UCHUN beriladigan imtiyozlarni yagona prinsipini joriy etish; lavozimlarga ega bo'lishda teng imkonlarga ega bo'lish hukmdor tabaqa ichida o'zaro munosabatlarning izchil bo'lishi; amaldorning shaxsan javobgarligi; davlat apparati xodimlari faoliyati ustidan cheklovchi nazorat o'rnatish va h. o.

Legizm oqimi tarafdorlarining qarashlarida ilgari surilgan bunday talablar markazlashgan feodal davlatni mustahkamlashga, imperator xokimiyatining abadiy va mukaddas ekanligini siyosiy jixatdan isbotlashga qaratilgan edi.

Xan imperiyasi xukmdorligi ostida Xitoyning g'oyat katta territoriyasini birlashtirish avj olgan bir sharoitda Konfutsiy ta'limoti ham rasmiy mafkuraga aylanayotgan edi. Ana shu davrda yashagan va saroyga yaqin bo'lgan Konfutsiy tarafdorlarning (Dun Chjunshu) ta'sirida konfutsiychilik ustun pozitsiyani legizm uning tarkibiga singib ketdi va natijada mustaqil ta'limot tugadi. Shunga qaramay uning davlat va xarbiy sohalarga oid konsepsiyalari uzoq vaqtlargacha saqlanib qoldi.

Legizm ta'limotining rivojlanishida Sharqiy Xitoydagi Si podsholigida (er. av. VII asr) birinchi ministr bo'lib xizmat qilgan Guan Chjun (er.av.645-yili vafot etgan) katta rol o'ynagan. Uning siyosiy

SIYOSAT

qarashlari an'anaviy vorislik. aristokratiya va aslzodalikning imperatorlik xokimiyatidagi mavqeini pasaytirishga, yakka xokimlikni mustahkamlashga qaratilgan, ana shu yo'nalishda qator islohotlar o'tkazdi. Xitoy tarixida birinchi bo'lib mamlakatni qonun asosida boshqarish g'oyasini ilgari surdi. "Qonunlar halqning otasi va onasidir», deydi u. Xukmdor sabdolar, oliy va quyi, aslzoda va past tabaqalar, umuman, barcha kishilar qonunga rioya qilishlari kerak. By – davlatning boshqarishning olijanob san'atidir. Guan Chjun qonunni imperatordan ham ustun qo'yishga intildi. Biroq uning bu g'oyalari qo'llab quvvatlanmadi[3.12].

Qadimgi Xitoyda legizm g'oyalarini er. av. IV asrda yashagan Shan Yan rivojlantirdi va keng targ'ib etdi. U kambag'allashib qolgan Vey podsholigi urug'idan bo'lib, er. av. 361—338 yillarda podsholik qilgan Syao-Gun davrida birinchi maslahatchi lavozimida ishladi. Uning g'oyalari mutlaq xukmronlikka ega bo'lgan podsho va mustabid davlat nazariyasini yaratishga qaratilgan edi. Podsho xokimiyatini mustahkamlash, xokimiyatni yagona qo'l ostida markazlash tirish borasida qator islohotlarni amalga oshirdi. Er.av. II asrlarda yashab, ijod qilgan Xan Fey olam, uning yaratilishi va falsafiy qarashlarini yaratish bilan bir qatorda legizmning g'oyaviy-siyosiy ta'limotlarini sistemalashtirdi va tartibga soldi. Imperatorlik oilasiga mansub bo'lgan bu mutafakkir o'ziga xos huquq falsafasini yaratdi va tarixiy jarayonda *halq ommas*i va mulkiy tengsizlik hal qiluvchi rol o'ynaydi, degan g'oyani ilgari surdi.

Eramizdan avvalgi II asrga kelib, Xitoy Xan sulolasi tomonidan yagona imperiyaga birlashtirildi. Bu sulola vakillari imperiyani markazlashgan holda boshqarish siyosatini olib borish uchun konfutsiychilar hamda legizm ta'limotidan, ularning quyi tabaqalar yuqori tabaqalarga bo'ysunishi haqidagi siyosiy ta'limotidan foydalangandilar. *Eramizning X asrlariga* kelib, konfutsiychilikni qaytadan tiklash davri boshlandi. Birok, feodal tuzumni mustahkamlash davrida konfutschilikning eng salbiy tomonlaridan foydalanildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Konfutsiychilikning ko'p asrlar davomida Xitoy halqining axloqiy-siyosiy qarashlarini belgilovchi ta'limot sifatida yashadi, rivojlantirildi va targ'ib etildi. Turli hukmdorlar, imperatorlar va sulolalar davrida Konfutsiy ta'limotiga turlicha munosabatlar bildirilgan bo'lsa ham, Xitoy xalqining eng buyuk donishmandi va ustoz hisoblangan Konfutsiy ta'limotiga, unda ilgari surilgan axloqiy va siyosiy g'oyalar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Islom Karimov. Konfutsiy ta'limoti va Sharq falsafasi. T. "Ўзбекистон", 2001.
2. Г.Ф. Кораблёв., А.И. Кобзев, Л.С. Переломов (тахрири) Хитой фалсафаси тарихи. М. 1988 г
3. И.С.Спирин. Древнекитайская философия. М. 1999
4. А.И. Кобзев. Конфуцианство: прошлое и настоящее. М. 2010
5. Ю.Е. Берёзкин. Дао и политика в древнем Китае. М. 2016
6. В. Watson. Tarjima va sharhlar.